



ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TAVSIFI VA ASARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Bozorova Gulchexra

NDKTU akademik litseyi o‘qituvchisi

Jabborova Muqaddas

Normurodova Sevinch

NDKTU akademik litseyi

2-B-24 guruhi o‘quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug‘ ma’rifatparvar, yozuvchi Abdulla Qodiriyning o‘zbek romanchiligiga qo‘shgan hissasi hamda o‘zi aytganidek buyuk ishni boshlash yo‘lidagi kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havas bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanidagi obrazlar va taqdirlar kesishuvidagi asosiy omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, adolatli sudlar, Xudoyorxon, “chayon solig‘i”, Yusufbek hoji, Otbek, Zaynab, Kumushbibi.

Abstract. This article analyzes the contribution of the great enlightener and writer Abdulla Qodiriy to Uzbek novelism and the main factors in the intersection of characters and destinies in the novel "Bygone Days", which, as he himself said, was a small experiment on the way to starting a great work, or rather, a desire.

Keywords: Jadids, fair courts, Khudoyorkhon, "scorpion tax", Yusufbek hoji, Otbek, Zaynab, Kumushbibi

Kirish.

O‘zbek adabiyotida ko‘plab atoqli yozuvchi va shoirlar o‘tgan. Ular orasida o‘sha davr adabiyotida yangi yo‘l ocha olgan Abdulla Qodiriy bo‘lgan xonlik zamonlarida dunyoga kelgan. Qodiriy muntazam ta’lim olish imkoniyatiga ega



bo'lmasa-da, tirishqoqligi hamda tabiat in'om etgan nodir iste'dodi tufayli chinakam yozuvchi bo'lib yetishdi. Qodiriy umrining so'nggi lahzalariga qadar haqiqat deya kurashdi. Yuragidagi haq so'zlarini kitoblariga ko'chirdi. O'sha davrdagi ba'zi "haqiqatlarga" mos kelmagan bu so'zlar bugun o'z isbotini topdi. Jadidlarga o'tkazilayotgan tazyiqlar yanada kuchaygan bir pallada Abdulla Qodiriyga ham berilgan ogohlantirishlar samarasiz ketganidan keyin uni turmaga olib ketishadi. Aslida, hukumatning "adolatli" sudlari 1938-yilning 5-oktabr kuni adibni o'linga mahkum etdilar. Biroq qatag'on mashinasi shu qadar shiddat bilan ishlamoqda ediki, bir kun ham sabr etmadi. Xalqimizning o'n sakkiz fidoyisi o'sha mudhish tun – 4-oktabrda otib tashlandi.

Sovet davrida adib asarlari mukammal o'rganilmagan hamda nashr qilinmagan. Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr qilina boshlandi. Biroq "O'tkan kunlar"ning 1958-yildagi nashri ilgarigi nashrlardan farqli ekanligini B.Hayit roman matnlarini qiyoslab, ba'zi o'rinlar tushirib qoldirilganini, ayrim jumlar tahrir etilganini ta'kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning "o'ris bilan to'qnashma"da shahid bo'lganligi iborasi "chor askarlari bilan to'qnashish"da birikmasiga o'zgartirilganligini misol qilib keltiradi. B.Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favqulodda yangi, kutilmagan talqinlari sezilmaydi. Tabiiyki, kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nisbatan bunday shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so'z bo'roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi hukmron siyosatning talabi shunday edi.

O'zbek romanchiligi bir muhtasham qasr bo'lsa, ushbu binoning poydevori, albatta, Abdulla Qodiriy tomonidan bunyod etilgan. Ilk g'isht "O'tkan kunlar" romani bo'lgani, shubhasiz. Roman shunchaki ikki qalbning bir-biriga bo'lgan muhabbat emas, balki o'sha davrdagi illatlarni fosh eta olgan asardir. Romandagi Azizbek obrazi xonlikdagi o'z manfaati yo'lida yashaydigan amaldorlarning ayni qiyofasi. Uning chayon solig'i deb nomlangan to'qima soliqlar solishi xalqning shundoq ham og'ir hayotini yanada



murakkablashtiradi. Musulmonqul qo'g'irchoq xon – Xudoyorxonning tajribasizligidan foydalanib xalqning boshiga ancha og'ir kunlarni solib qo'ydi.

Otabek, Kumush, Zaynab taqdirlarining to'qnashuvi va asarning mudhish parokandalik bilan yakun topishi kishini beixtiyor o'ylashga chorlaydi. Otabek— chin mard, to'g'riso'z, ko'rkam o'zbek yigiti. Kumush ham qutidorning yagonasi, husnda tengi yo'q bir qiz. Bu ikkisinin sof sevgisiga rahna soluvchilar ko'p bo'ldi. Aslini olganda, Otabekning otaonasi ruxsatisiz uylanishi noo'rin bo'lgan, negaki u ham yaqinlarining yolg'iz o'g'li edi. Boshqa tomondan Oftoboyimning qizining Toshkentga borishiga qilayotgan qarshiligi O'zbekoyimning bo'lajak kelini haqida qilayotgan orzulariga tamomila zid edi. Shuning uchun o'ziga Zaynabni kelin qilib olish fikriga tushdi. Zaynab ham shunday hayotni xohlab oila qurmagandi, biroq taqdir charxpalagi uni shu qadar yo'ldan adashtirdiki, so'nggi chora faqat Kumushni o'ldirish deya fikrladi:

Qo'ying meni qarg'amangiz,

Axir men ham gul edim.

Suyib-suyib suyilmagan

Yori tirik tul edim.

Ko'pchilik insonlar romandagi asosiy aybdorni Zaynab deb bilishadi va uni doim qoralashadi Ammo mening fikrimcha, hayotda hech kim yomon bo'lib tug'ilmaydi, gunohkorlarni ham shu darajagacha keltirgan odamlar bo'ladi. Bundaylar shunchaki ayanchli taqdir qurboni bo'lishadi, xolos. Obrazlarning hayot yo'llaridagi chalkashliklarning sababchilaridan biri Oftoboyim hamda O'zbekoyimdir. Oftoboyim boshidan qizining kelinlik uyida yashashi uchun ruxsat berishi kerak edi, chunki Kumush ham Yusufbek hoji va O'zbekoyim tomonidan yaxshi kutib olindi. Toshkent ayollari orasida alohida mavqega ega bo'lgan O'zbekoyim orzu-havasleri yo'lida uch kishining taqdirida keskin burilishlar yasaydi. Zaynab ham o'z yoridan mehr ko'rishni, baxt qasrida baxtli yashashni xohlaydi, biroq Otabek Kumushni jonidan ham ortiq ko'radi. O'sha kun.



O'zbekoyimning buyrug'I bilan kundoshi uchun atala pishirdi va ichiga zahar solib berdi. Tabibga ko'rsatdilar, ammo zaharning kuchliligidan Kumush uzoqqa bormadi, joni uzildi. Aynan o'sha sahna muallif tomonida juda og'ir ahvolda yozilgan ekan. Abdulla Qodiriy ham Kumushning o'limini ko'zida yosh bilan yoza turib uning o'limidan qattiq afsuslanadi. Nihoyat O'zbekoyim barpo qilishni xohlagan ulug' saltanat oxirigacha bunyod bo'lmay quladi. Kumush va Otabek bu yorug' olamni tark etishdi, Zaynab esa tanib bo'lmas devonaga aylandi-qoldi. Bugungi davrda ham shunga yaqin hodisalarni ko'p uchratib turamiz. Biroq ushbu asardan kerakli xulosalar chiqarsa bo'ladi. Kumushning o'zbek kelinchaklariga xos sifatlarini ko'rish mumkin. U hatto o'lish darajasida bo'lsa-da, qaynotasini ko'rib o'rnidan qo'zg'alishga harakat qilishi uning go'zal tarbiyasidan dalolat beradi. Mutaxassislarning fikricha, Qodiriy tasvirlagan asar qahramonlari hayotda ko'rgan kishilari, o'zining yaqinlari bo'ladi. Masalan, O'zbekoyim Abdulla Qodiriyning qaynonasi bo'lgan. Bu romanni yozishdan oldin adib Marg'ilon va Toshkent yo'llarining har bir qarichini ham o'rganib chiqadi. Balki asarning bunchalik puxta yozilganining sababi ana shunday mehnatdir. Ha, rus hukumati Abdulla Qodiriy hayotiga nuqta qo'ya oldi, ammo adib o'zi uchun oltindan haykal qurib keta olgan ijodkor. Uni hech qachon qulatib bo'lmaydi. Tani tuproqqa burkangani rost, biroq u har bir yuraklarda o'rin egallab ulgurgan. Haqiqiy o'zbek yozuvchisi shunday bo'ladi, tanti xalqimizning farzandi shunday bo'ladi.

Xulosa

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyoti taraqqiyotida yangi bosqich boshlab bergan, milliy roman yo'lining poydevorini yaratgan benazir badiiy asarlardan biridir. Asar o'zining yuksak badiiylik darajasi, hayotiy obrazlar, tarixiy voqealar bilan uyg'unlashgan falsafiy mazmuni orqali o'quvchini chuqur o'yga chorlaydi. Undagi Otabek, Kumush, Yusufbek hoji kabi xarakterlar o'zbek xalqining ma'naviy olamini, fidoyilik, sadoqat, halollik, vatanparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yorqin aks ettiradi.



Romanda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, eski tuzumning adolatsizliklari, mahalliychilik, nodonlik, jaholatning vayronkor oqibatlari real tasvirlanib, o'quvchini ma'naviy uyg'onishga undaydigan g'oyaviy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Qodiriy o'zbek jamiyatidagi eskicha qarashlar va yangicha fikrlash o'rtasidagi ziddiyatni mahorat bilan ochib beradi.

Bugungi kunda "O'tkan kunlar" romani o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy o'quvchini tarixiy xotiraga hurmat, milliy o'zlikni anglash, Vatan ravnaqi uchun mas'uliyat tuyg'usini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan bebaho ma'naviy merosdir. Asarda tasvirlangan ijtimoiy illatlar – jaholat, mahalliychilik, adolatsizlik, turli qarashlarning to'qnashuvi – bugungi hayotda ham muhim tarbiyaviy saboq bo'lib qolmoqda.

Shu bois "O'tkan kunlar" nafaqat o'tgan zamonning badiiy manzarasini yaratgan tarixiy roman, balki bugungi yoshlarni ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik, o'zligiga sodiqlik ruhida tarbiyalaydigan yuksak adabiy asar sifatida o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bashir. O'zbek adabiyoti. — Qozon, 1929. — B.15.
2. Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994 yil 14-oktyabr, 11-noyabr
3. Abdulla Qodiriy .“O'tgan kunlar”.T “Sharq”, 2007.-384 b.
4. Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. Journal of Applied Science and Social Science, 1(2), 474-479.
5. Rajabova, D. (2025). SYSTEMIC PROBLEMS OF THE CURRENT STATE OF THE INNOVATION ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 638-643.



6.Rajabova, D. (2025). WAYS TO IMPROVE INNOVATION ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 604-610.

7.Rajabova, D., & Usmonova, D. (2024). BIG DATA VA IQTISODIY TADQIQOTLARDA TAHLILIY IMKONIYATLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 16-23.